

**TEXNOLOGIYA DARSLARIDA MILLIY LIBOSLAR TIKISH UCHUN
O'TILADIGAN DARS SOATLARIDA ZAMONAVIY TA'LIM
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH**

*Dadaboyeva Dilnoza Ulug'bek qizi
Farg'onan viloyati Farg'onan tumani
3-sonli o'rta ta'lif maktabi
Texnologiya fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu metodik tavsiyada texnologiya o'qituvchilari uchun darslarni yangi, zamonaviy metodlar asosida tashkillash, dars jarayonida o'quvchilarni mavzularga bo'lgan qiziqishlarini oshirish hamda mavzularni takrorlash va mustahkamlashga oid ma'lumotlar taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: milliy, libos, mato, gazlama, milliy kiyimlar, zamonaviy kiyimlar, "Tushunchalar tahlili", "Venn diagrammasi", "Bo'laklarni tiklash", "Matoga qarab fason tanlash", "Guldasta", "Xotira mashqi".

Xalq turmushining boshqa sohalari singari milliy liboslarni o'rganish har bir xalqning etnik tarixi va madaniyatini, uning boshqa xalqlar bilan o'zaro aloqalarini tatbiq etish bilan chambarchas bog'liqidir. U moddiy va ma'naviy yodgorliklar ichida xalqlarning milliy o'ziga xosligini aks ettiruvchi va etnik belgilarini ko'rsatuvchi mezon ham hisoblanadi. Shu ma'noda libos tarixini o'rganish yer kurrasida mana necha ming yillardan beri yashab kelayotgan xalqalr boy madaniy merosi, shu bilan birga ularning an'analari, yashash tarzi haqida kattagina ma'lumot ham beradi. Liboslar nafaqat insonlarning tabiiy va estetik ehtiyojlarini qondiradi, shu bilan birga ularda har bir millatning urf-odatlari, ijtimoiy munosabatlar, mafkuraning ba'zi bir elementlari, diniy e'tiqod, nafosat va estetik normalar o'z aksini topgan. Bundan tashqari, kiyimlarda inson yashagan joy va zamon, uning hayotiyigi, quvonchli yoxud qayg'uli voqealar namoyon bo'ladi. Kiyim jamiyat moddiy va ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismidir. Bir tomonidan, u inson mehnati mahsuli sifatida ma'lum bir moddiy qiymatga ega bo'lib, ma'lum bir ehtiyojlarni qondirsa, ikkinchi tomonidan u amaliy-bezak san'ati namunasi hamdir. Me'moriy inshootlar, mehnat va turmush qurollari singari kiyim ham ma'lum bir tarixiy davr, mamlakatning tabiiy iqlim sharoiti, xalqning milliy o'ziga xosliklari va uning go'zallik haqidagi tasavvuri haqida ma'lumot beradi.

Kiyim va libos tushunchalari mazmun-mohiyati jihatdan bir-biri bilan mushtarak ko'rinsa-da, ushbu tushunchalar o'rtasida birmuncha farqlar ham mavjud.

Kiyim deganda, avvalo, inson tanasining turli qismlarini berkitish uchun zarur bo'lgan, uni tashqi muhitning turli ta'sirlaidan himoyalaydigan buyumlar tushuniladi.

Kiyimning qator turlari mavjud. Bular: ichki kiyim, ustki kiyim, turli uzunlikdagi paypoqlar, poyabzal, bosh kiyimlari.

Milliy liboslar o‘zbek xalqining boy madaniy an’analari, turmush tarzi va boy tarixiy ildizlaridan darak beradi. O‘zbek milliy kiyimi – o‘zbek xalqining o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi qadimgi davrlarda yaratilgan va hozirgi kunlarda foydalaniladigan, madaniyati va tarixi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan kiyimlardir. Milliy kiyimlar har bir mintaqada o‘ziga xos farq va xususiyatlar bilan ajralib turadi.

O‘zbek milliy libosiga ayollar uchun – zar chopon, do‘ppi va nimcha, erkaklar uchun do‘ppi, chopon, belbog‘ va yaxtak kiradi. O‘zbek milliy libosi jahonda o‘z o‘rniga ega. Masalan dunyoning turli joylaridan kelgan mehmonlar O‘zbekistonning milliy libosi va madaniyatiga yuqori baho berishmoqda. O‘zbek milliy libosi va madaniyati o‘zgacha jozibadordir. Hozirda o‘zbek tikuvchilar chet mamlakatlarga borib ularga o‘zbek libosini o‘ziga xos jihatlarini namoyon qilishmoqda. O‘zbekistonga mehmon bo‘lib kelgan sayohatchilar vatanimizni tarixiy obidalari, me’morchilik san’ati, milliy urf-odatlariga katta qiziqish bilan e’tibor beradilar. Esdalik sifatida atlas, do‘ppi, belbog‘, chopon va boshqa me’morchilik uslubida ishlangan sovg‘alar olib ketadilar.

Do‘ppi – O‘zbekistonda keng tarqalgan yengil bosh kiyim. Do‘ppi asosan baxmal, ipak, zar bilan tikiladi. O‘zbekistonda Chust, Toshkent, Samarqad, Buxoro, Boysun, Shahrisabz do‘ppilari mashhur. Ayniqsa, Chust do‘ppilari keng tarqalgan bo‘lib, O‘zbekistonning deyarli hamma viloyatlarida tayyorlanadi.

Chopon (to‘n) o‘zbek xalqining qadimiy – ustki milliy kiyimlaridan biridir. Choponni O‘zbekistonning deyarli bar cha viloyatlarida erkaklar ham ayollar ham kiyishadi. Chopon zar va ipaklar bilan bezak berib ham tikiladi.

Maktabda texnologiya darslarini tashkil etishda “Fikrlarning tarmoqlanishi”, ”BBB”, ”FSMU”, ”VENN diagrammasi”, ”Charxpalak”, ”Tushunchalar tahlili”, ”Raqamlar so‘zlaganda”, ”Baliq skleti”, ”Yelpig‘ich”, ”Bumerang”, ”Zakovat”, ”Ha yoki yo‘q”, ”Zinama-zina”, ”Sinkveyn”, ”SWOT” tahlili kabi innovatsion, noan’anaviy ta’lim metodlaridan foydalanish mumkin bo‘lib, darslarni pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etishda ularning ahamiyati katta.

Avvalo dars boshlashdan “Kun yangiliklari”ni eslab o‘tish orqali yurtimizda bo‘layotgan voqeа va hodisalar haqida axborot tinglanadi. Darsni qiziqarli va mazmunli tashkillash uchun o‘quvchilar sonidan kelib chiqib, ikki (yoki uch) guruhga ajratiladi. Kiyimlar nomidan kelib chiqib, ”Milliy kiyimlar guruhi” va ”Zamonaviy kiyimlar guruhi” deya nomlash maqsadga erishish darsda turli xil ko‘rinish va moda turlari haqida ham ma’lumotga ega bo‘lish uchun asos vazifasini bajaradi. Guruhlar o‘zbek tili fanidan kelib chiqib, guruhlar nomlanadi Mavzularni tez yod olish va xotirada mustahkam saqlash uchun o‘quvchilar bilar ”Tezkor savol-javob” o‘tkazish kerak. Guruhlar uchun beshtadan aniq va lo‘nda javobga ega savollar beriladi.

1. Libos nima?
2. Qanday libos tularini bilasiz?
3. O'zbek milliy liboslarini boshqa millat liboslari bilan qanday farqli jihatlari mavjud?
4. Zamonaviy liboslar haqida qanday fikrdasiz?
5. Milliy matolarimizdan sanab bering.

“Tushunchalar tahlili” metodidan mavzuga oid so‘zlaarni tahlil qilish uchun foydalanish mumkin.. Bunda o‘qituvchi o‘tilgan mavzuni mustahkamlash va takrorlashda shu metoddan foydalanishi mumkin. O‘quvchilarga tushunchalar tushurilgan jadval tarqatiladi. Tushunchani izohlab, o‘quvchilar uning mazmuni haqida fikr-mulohazalarini yozishadi.



Venn diagrammasi usulida o‘quvchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiyligi mohiyatini o‘zlashtirish (sentezlash) ko‘nikmalarini hosil qilishga yo‘naltiriladi. Strategiya kichik guruhlarni shakllantirish asosida sxema bo‘yicha amalga oshiriladi. Yozuv taxtasi o‘zaro teng 3 bo‘lakka ajratiladi va har bir bo‘lakka sxema chiziladi. Avval ikkala mavzu haqida ma’lumot yoziladi. So’ng ularning o‘xhash tomonlari yoziladi va ikkita mavzu haqidagi ma’lumotlar mustahkamlanadi.

Bu usul ko‘nikma hosil qilishda, tushuncha va axborotlarni umumlashtirish hamda ixchamlashtirish uchun tez va kuchli vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy kiyimlar

Davr o'tishi bilan boshqa chet davlarlardan kirib kalayotgan g'arb millatlari uchun tikilgan kiyimlar

O'xhash tomonlari :
Har ikkisi ham libos, matolardan tikiladi

Milliy kiyimlar

Momolarimiz va buvijonarimizdan meros bo'lган milliy matolardan tikilgan, o'zbeklarga, islomiy davlatlarga xos bo'lган liboslar

"Bo'laklarni tiklash" metodi. Bu o'yin mavzudan tashqari shu bilan birga mavzu yuzasidan olib borladigan o'yin hisoblanadi. Bunda o'qituvchi doskaga mavzuga oid libos nomini yozadi, (masalan, nimcha) nimcha eskizini bo'laklarga bo'lib aralashtirib yuboradi, o'quvchilar bo'laklarni tiklab yopushtirib sinf doskasida rasmni izohlashadi, xatoliklar mayjud bo'lsa tuzatishadi.

Bu o'yin o'quvchilarni bir-birlari bilan birgalikda uyushib ishlash qobiliyatlarini shakllanishiga sababchi bo'ladi.

"Matoga qarab fason tanlash" o'yini. Bu o'yin o'quvchilarning dizaynerlik va ijodkorlik qobiliyatları tekshiriladi. A4 qog'oziga o'quvchilar uchun belgilangan matodan nimalar tikish mumkinligi haqida so'raladi va ularning tasvirini tushirish topshirig'i beriladi.



"Guldasta" metodi. Bu juda oz fursat ichida o'tkaziladigan metod bo'lib, juda qiziqarli. Bunda o'qituvchi tomonidan yasab kelingan gullar o'qituvchi stolida bo'ladi.

gullarning yaproqlarida milliy va zamonaviy kiyim nomlari yozilgan bo'ladi. Sinf o'quvchilari ikki guruhga bo'linadi. O'qituvchi birinchi guruhga zamonaviy kiyim nomlari yozilgan so'zlarni ya'ni gullarni terib guldasta qilishlarini ikkinchi guruhga milliy kiyim nomlari yozilgan gullarni terishlarini so'raydi. Qaysi guruh 10 ta gulni birinchi bo'lib bexato guldasta qilib yig'sa, shu guruh g'olib sanaladi.

"Xotira mashqi" o'yini. Ushbu metodda mavzuga oid so'zlar takrorlash va eslab qolish maqsadida shu metoddan foydalaniladi. O'qituvchi 7 ta milliy liboslar nomini aytadi. O'quvchilar xotirada saqlab qolib takrorlaydi. Qaysi o'quvchi to'liq va to'g'ri takrorlab aytsa, rag'batlantirladi. Ta'lim olishni chegarasi va vaqt yo'q. Chunki zamon shiddat bilan o'zgarib borayotgan bir vaqtda, axborot olami juda cheksiz va kengdir. Shu sababli hozirgi zamon o'qituvchisi, hozirgi zamon o'quvchisini hayratda qoldiradigan uni e'tiborini tortadigan darslarni tashkil etishi kerak.

Ta'kidlash joizki, bugungi kun ta'limida eng dolzarb bo'lган texnologiya fani darslarida interfaol usullarni qo'llash o'quvchilarda bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi. Shuningdek, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirib, kasbiy sifatlar hamda ma'naviy dunyoqarashni rivojlantiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, milliy liboslar millatning ko'zgusi bo'lib, unda tarix - o'tmish va kelajak jonlanadi. Ma'lumki, eng katta xiyonat e'tiqodga bo'lган xiyonatdir. Bizning e'tiqodimizning uzviy bir jihatni ham kiyinish madaniyatiga bo'lgan e'tiborimiz bilandir. Milliy iboslar yurtimizdagi qadim va muqaddas, mo'jizaviy buloqlardek toza va musaffo, iste'molga doim yaroqli bo'lishi shart. Uning ichki imkoniyatlari cheksiz va mislsizdir. Milliy kiyimlarimizning tabiiyligi uchun kurashish, o'zbekona milliylik me'yorlariga rioya qilish, uning tarovatini saqlab qolish barchamizning eng muqaddas va sharaflı burchimizdir.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.Abdugodirov, R.Ishmuhammedov, "Ta'limda innovatsiya" T.; Istedod - 2010
2. J.G'.Yo'ldoshev. "Ta'limimiz istiqlol yo'lida". –T.: Sharq 1996.
3. R.Mavlonova, N.X.Raxmonqulova. Ta'lim texnologiyalarida innovastiya. Metodik qo'llanma, TDPU, 2007.
5. www.uzedu.uz
6. www.ziyonet.uz
7. www.kitob.uz